



## Toshkent viloyati statistika boshqarmasi

# 2019 yilning yanvar- sentyabr oylarida QURILISH ISHLARI

### Raqamlar:

Qurilish ishlari hajmi -  
**3328,7 mlrd. so`m**

Yirik qurilish tashkilotlari  
ulushi – **20,4 %**

Kichik tashkilotlar va  
mikrofirmalar ulushi  
– **54,1 %**

Norasmiy sektor  
ulushi – **25,5 %**

Toshkent viloyatida qurilish faoliyati investitsiya kiritilishining jozibador yo`nalishlaridan biri va iqtisodiyotining ahamiyatli tarmog`i hisoblanadi. Joriy yilning yanvar- sentyabr oylarida Toshkent viloyatida jami **3328,7 mlrd.so`m** qurilish ishlari bajarilgan bo`lib, o`sish sur`ati o`tgan yilning mos davriga nisbatan **141,5 %**ni tashkil etdi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik qurilish tashkilotlari tomonidan **678,7 mlrd.so`m** qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **20,4 %**ni, hamda o`tgan yilning mos davriga nisbatan **133,7 %**ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **54,1 %**i yoki **1801,2 mlrd.so`m** to`g`ri keldi va o`tgan yilning mos davriga nisbatan **156,2 %**ni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa **25,5 %** yoki **848,8 mlrd.so`m** to`g`ri keldi hamda o`tgan yilning mos davriga nisbatan **122,4 %**ni tashkil etdi.



### Yirik qurilish tashkilotlari

- hajmi - **678,7 mlrd.so`m**
- o`sish sur`ati - **133,7 %**
- ulushi - **20,4 %**



### Kichik korxonalar va mikrofirmalar


- hajmi - **1801,2 mlrd.so`m**
- o`sish sur`ati - **156,2 %**
- ulushi - **54,1 %**



### Norasmiy sektor

- hajmi - **848,8 mlrd.so`m**
- o`sish sur`ati - **122,4 %**
- ulushi - **25,5 %**

## Iqtisodiy faoliyat bo'yicha qurilish ishlari, mlrd.so`m



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida **72,6 %** ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan **1,4%** punktga ko'paydi.





Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda **12,1 %** ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **0,6%** punktga kamaydi.


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa **15,3 %** to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan **0,8 %** punktga kamaydi.



**Yanvar-sentyabr oylarida qurilish ishlaringin  
faoliyat turlari bo`yicha tarkibi, % da**



## 2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi **21,6 %** ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **1,7 %** ga kamaydi. Bunda kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi **43,3 %** va norasmiy sektorning ulushi **35,1 %** ni (**5,6 %** ga kamayish) tashkil etdi.


Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi, umumiy hajmga nisbatan **31,6 %ni** (**6,5** punktga kamayish) tashkil etdi. Kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **68,4 %ni** (**6,5** punktga ko'paydi) tashkil etdi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi, umumiy hajmga nisbatan **5,9%ni** (**4,2** punktga ko'paydi) tashkil etdi. Kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **94,1 %ni** (**4,2** punktga kamayish) tashkil etdi.

**Xududlar kesimida qurilish ishlari hajmi**  
 (2019 yil yanvar- sentabr oylarida)

	<b>Jami</b>		
	Bajarilgan qurilish ishlari hajmi (mlrd.so'm)	2018 yil yanvar- sentyabrga nisbatan % da	Jami qurilish pudrat ishlari hajmida hududlarning ulushi % da
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>3328,7</b>	<b>141,5</b>	<b>100,0</b>
<b>Nurafshon shahri</b>	<b>129,2</b>	<b>148,2</b>	<b>3,9</b>
<b>Olmaliq shahri</b>	<b>177,3</b>	<b>133,0</b>	<b>5,3</b>
<b>Angren shahri</b>	<b>141,9</b>	<b>143,0</b>	<b>4,3</b>
<b>Bekobod shahri</b>	<b>157,8</b>	<b>141,9</b>	<b>4,7</b>
<b>Ohangaron shahri</b>	<b>109,9</b>	<b>156,7</b>	<b>3,3</b>
<b>Chirchiq shahri</b>	<b>172,9</b>	<b>155,7</b>	<b>5,2</b>
<b>Yangiyo'l shahri</b>	<b>77,3</b>	<b>135,8</b>	<b>2,3</b>
<b>Oqqa'rg'on tumani</b>	<b>87,3</b>	<b>143,3</b>	<b>2,6</b>
<b>Ohangaron tumani</b>	<b>79,3</b>	<b>121,6</b>	<b>2,4</b>
<b>Bekobod tumani</b>	<b>103,6</b>	<b>144,1</b>	<b>3,1</b>
<b>Bo'stonliq tumani</b>	<b>200,4</b>	<b>156,1</b>	<b>6,0</b>
<b>Bo'ka tumani</b>	<b>71,1</b>	<b>143,6</b>	<b>2,1</b>
<b>Quyichirchiq tumani</b>	<b>68,0</b>	<b>158,8</b>	<b>2,1</b>
<b>Zangiota tumani</b>	<b>431,1</b>	<b>130,0</b>	<b>13,0</b>
<b>Yuqorichirchiq tumani</b>	<b>236,5</b>	<b>140,9</b>	<b>7,1</b>
<b>Qibray tumani</b>	<b>255,7</b>	<b>156,0</b>	<b>7,7</b>
<b>Parkent tumani</b>	<b>188,6</b>	<b>143,9</b>	<b>5,7</b>
<b>Piskent tumani</b>	<b>76,1</b>	<b>151,4</b>	<b>2,3</b>
<b>O'rtachirchiq tumani</b>	<b>174,5</b>	<b>126,9</b>	<b>5,2</b>
<b>Chinoz tumani</b>	<b>95,8</b>	<b>142,1</b>	<b>2,9</b>
<b>Yangiyo'l tumani</b>	<b>109,8</b>	<b>150,7</b>	<b>3,3</b>
<b>Toshkent tumani</b>	<b>184,4</b>	<b>129,6</b>	<b>5,5</b>

## 2019 yil yanvar-sentyabr oylarida qurilish ishlari bajaruvchi subyektlar bo'yicha qurilish ishlari tarkibi




Joriy davrda jami qurilish ishlaring katta qismi kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keldi. Ular tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **1801,2** mlrd. so`mni (jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **54,1 %**) tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **156,2 %**ni tashkil etdi.

Norasmiy sektor hissasiga jami qurilish ishlaring **25,5%**ni yoki **848,8** mlrd. so`mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **122,4 %**ni tashkil etdi.


Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan **678,7** mlrd. so`m qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlaridagi ulushi **20,4 %**ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **133,7 %**ni tashkil etdi.

**Yanvar-sentyabr oylarida qurilish ishlari bajaruvchi  
subyektlar bo'yicha qurilish ishlaringin o'sish sur'atlari, % da**




Qurilish ishlari hajmida hududlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining tumanlar bo'yicha tarkibida Zangiota tumani, yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda bajarilgan qurilish ishlari hajmi yanvar-sentabr oyida **431,1 mlrd.so'm** yoki o'tgan yilga nisbatan **137,2 %**ga bajarildi.

### Hududlar kesimida qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)




Qurilish ishlari hajmining eng past darajasi quyidagi hududlarda kuzatildi:  
Piskent tumani (76,1 mlrd. so'm yoki 151,4 %), Quyichirchiq tumani(68,0 mlrd. so'm yoki 158,8 %) va Bo'ka tumani (71,1 mlrd. so'm yoki 143,6 %) qurilish-pudrat ishlari amalga oshirildi;

2019 yil yanvar-sentabroyalarida hududlar kesimida qurilish ishlari hajmi o'sish sur'atlari % da



2019 yilning yanvar- sentyabr oylarida qurilish ishlari umumiy hajmida  
hududlarning ulushi, % da



Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlaringning katta qismi Zangiota tumanida bajarilgan bo`lib, viloyatda bajarilgan jami qurilish ishlaringning 13,0 %ini, Qibray tumanida 7,7 %ni va Yuqorichirchiq tumanida bajarilgan qurilish ishlari esa 7,1 %ni tashkil etdi.

Viloyatda amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi bo`yicha past ko`rsatkichlar: Quyichirchiq tumanida bu ko`rsatkich eng past 2,1 %ni tashkil etdi. Yangiyo'l shahri 2,3 %ni va Piskent tumanda 2,3 %dan tashkil etganligini kuzatishimiz mumkin.

Qurilish ishlari mavsumining boshlanishi bilan hududlarda bajariladigan qurilish ishlaringning hajmi ortib, ularning viloyatdagi ulushi ham o`zgarib boradi.



**Toshkent viloyat statistika boshqarmasi**  
**Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi**

**Nashr uchun mas'ul: B. Djavliyev**  
**Aloqa telefoni: (71) 230-86-71**